

«Stomatologiya» - илмий-амалий журнал
1998 йилда асос солинган Ўзбекистон
матбуот ва ахборот агентлиги томонидан
15 август 2007 йилда қайта рўйхатга олинган.
Гувоҳнома № 0289.

STOMATOLOGIYA

№ 4, 2025 (101)

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси
хузуридаги Олий аттестация комиссияси (ОАК)
қарорига асосан «Stomatologiya» журнали Фан
доктори илмий даражасига талабгорларнинг
диссертация ишлари илмий натижалари юзасидан
илмий мақолалар эълон қилиниши лозим бўлган
республика илмий журналлари рўйхатига кири-
тилган (ОАК Раёсатининг 2013 йил 30 декабрдаги
201/3-сон қарори билан тасдиқланган)

ТАХРИРИЯТ МАНЗИЛГОҲИ:

100048, Ўзбекистон Республикаси,
Тошкент ш., Махтумқули кўчаси, 103
тел.: +99871-236-26-75;
факс: +99871-230-47-58
Интернетдаги манзилгоҳи:
stomjurnal.tibbiyot.com.

Дизайнер ва компьютерда терувчи:

Е.Алексеев

Мухаррир О.А.Козлова

Баҳоси келишилган нархда.

Рекламани чоп қилиш ҳақ тўлаш йўли билан
амалга оширилади.

Реклама матнининг тўғрилиги бўйича
жавобгарлик реклама берувчи зиммасидадир.

Қўлёзмалар, суратлар ва расмлар тақриз
қилинмайди ҳамда эгасига қайтарилмайди.

Келтирувчи фактларнинг тўғрилиги, рақамли
материалларнинг аниқлиги, препаратларнинг
номлари, атамалар, илмий-адабий манбалар, исм
ва фамилияларнинг тўғрилиги учун жавобгарлик
муаллифларнинг ҳамда таҳририят хайъатининг
зиммасидадир.

Бош муҳаррир: т.ф.д., проф. Нигматов Р.Н.
Бош муҳаррир муовуни: т.ф.д., проф. Жуматов У.Ж.
Масъул котиб: т.ф.н., доц. Рахматуллаева Д.У.

ТАХРИРИЯТ ХАЙЪАТИ

Ando Masatoshi – АҚШ
Baek il Kim – Жанубий Корея
Daisuke Inaba – Япония
Elbert de Josselin de long – Голландия
Jin Young Choi – Жанубий Корея
Peter Botenberg – Бельгия
Абдуллаев Ш.Ю., т.ф.д., проф.
Аверьянов С.В. (Россия), т.ф.д., проф.
Азимов М.И., т.ф.д., проф.
Акбаров А.Н., т.ф.д., проф.
Алиева Р.К. (Озарбайжон), т.ф.д., проф.
Амануллаев Р.А., т.ф.д., проф.
Бекжанова О.Е., т.ф.д., проф.
Ғафоров С.А., т.ф.д., проф.
Даминова Ш.Б., т.ф.д., проф.
Иноятлов А.Ш., т.ф.д., проф.
Ирсалиев Х.И., т.ф.д., проф.
Колбаев А.А. (Қирғизистон), т.ф.д., проф.
Комилов Х.П., т.ф.д., проф.
Мухамедов И.М., т.ф.д., проф.
Нигматова И.М., т.ф.н., доцент
Ризаев Ж.О., т.ф.д., проф.
Рузудинов С.Р. (Қозоғистон), т.ф.д., проф.
Тоиров У.Т. (Тожикистон), т.ф.д., проф.
Токаревич И.В. (Белоруссия), т.ф.д., проф.
Трунин В.А. (Россия), т.ф.д., проф.
Хабилов Н.Л., т.ф.д., проф.
Хасанов А.И., т.ф.д., доц.
Юлдошев И.М. (Қирғизистон), т.ф.д., проф.

ТАХРИРИЯТ КЕНГАШИ

Абдукодиров А.А. (Тошкент), т.ф.д., проф.
Боймуродов Ш.А. (Тошкент), т.ф.д., проф.
Ғуломов С.С. (Тошкент), т.ф.д., проф.
Исмоилов М.М. (Фарғона)
Кисельникова Л.П. (Россия), т.ф.д., проф.
Қурбонов Ф.Р. (Хоразм)
Тулаганов Б.О. (Тошкент вилояти)
Усмонов Ф.К. (Тошкент), т.ф.н., доц.
Узакберганова У.А. (Нукус)
Хасанова Л.Э. (Тошкент), т.ф.д.
Худанов Б.О. (Тошкент), т.ф.д.
Шукурова У.А. (Тошкент), т.ф.д.
Юлдошев А.А. (Тошкент), т.ф.д.

**Расулова Ш.Р., Абдужабборова С.С., Нема-
това Н.Б., Артыкова А.У.** Сравнительная морфо-
метрическая оценка симметрии и параметров
челюстно-лицевой области с применением техно-
логий искусственного интеллекта в диагностике
аномалий прикуса 51-54

Новрӯзова Н.О., Саидов А.А., Ахадов А.А.
Тиш-жағ аномалияларини ортодонтик даволаш
жараёнида оғиз бўшлиғи шиллиқ қавати трав-
матик жароҳатланишлари ва уларни даволаш
усуллари 55-59

СТОМАТОЛОГИЯ ДЕТСКОГО ВОЗРАСТА

Махмудбеков Б.О., Хасанов А.И. Болаларда
пастки жағ ўткир одонтоген остеомиелитида опе-
рациядан кейинги яраларни маҳаллий даволаш
усулларини такомиллаштириш 60-67

Хамдамова Л.З., Камалова Ф.Р. Взаимосвязь
биохимических и стоматологических показателей
при стоматологических заболеваниях у детей в
зависимости от вида вскармливания в раннем
детстве 67-70

Umarova O.N., Rasulova M.M. Bolalarda
ildiz shakllanmagan doimiy tishlarda pulpiti vital
amputatsiya usuli bilan davolash 71-75

ОБЗОРНЫЕ СТАТЬИ

**Юсупбекова Д.Д., Нигматова И.М., Муқимов
О.А.** Этиология, патогенез и методы лечения диа-
стемы 75-83

Dinikulov J.A., Muxammadov B. Bolalarning
og'iz bo'shlig'ida qo'llaniladigan shaxsiy gigiyenik
vositalarning samaradorligi 84-88

**Кучкарова М.К., Мухаммадов М.К., Сайдул-
лаева М.Д.** Роль цифровых технологий в восста-
новлении разрушенных жевательных зубов мето-
дами непрямого протезирования 89-93

**Расулова Ш.Р., Немадова Н.Б., Абдужаббо-
рова С.С.** Оценка эффективности ортодонтиче-
ской коррекции скученного положения зубных ря-
дов 94-98

ПРОБЛЕМЫ СМЕЖНЫХ СПЕЦИАЛЬНО- СТЕЙ

**Abduholiqova G.A., Sharipova A.U., Mardonov
J.N.** Surunkali tonzillitni tashxislash va davolashda
streptotestdan foydalanish samaradorligi 98-103

Валиева М.У. Профессионал енгил атлетика-
чи спортчиларни амалдаги овқатланиш ҳолатини
баҳолаш 104-108

**Rasulova Sh.R., Abdujabborova S.S.,
Nematova N.B., Artykova A.U.** Comparative
morphometric assessment of symmetry and
parameters of the maxillofacial region using artificial
intelligence technologies in the diagnosis of bite
anomalies 51-54

**Novro'zova N.O., Saidov A.A., Axadov
A.A.** Traumatic injuries of the oral mucosa
and methods of their treatment in the
process of orthodontic treatment of dental
pathology 55-59

PEDIATRIC DENTISTRY

Maxmudbekov B.O., Xasanov A.I. Methods of
local treatment of postoperative wounds in acute
odontogenic osteomyelitis of the lower jaw in
children are being improved. 60-67

Khamdamova L.Z., Kamalova F.R. The
relationship between biochemical and dental
parameters in dental diseases in children
depending on the type of feeding in early
childhood 67-70

Umarova O.N., Rasulova M.M. Treatment of
pulpitis in permanent teeth with unformed roots in
children by vital amputation method 71-75

REVIEWS

**Yusupbekova D.D., Nigmatova I.M., Muqimov
O.A.** Diastema: analysis of causes and effective
treatment methods 75-83

Dinikulov J.A., Mukhammadov B.
Effectiveness of personal oral hygiene products in
children 84-88

**Kuchkarova M.K., Muhammadov M.K.,
Saidullaeva M.D.** The role of digital technologies
in the restoration of damaged chewing teeth using
indirect prosthetics methods 89-93

**Rasulova Sh.R., Nematova N.B.,
Abdujabborova S.S.** Evaluation of the
effectiveness of orthodontic correction of crowded
dentition 94-98

THE PROBLEMS OF RELATED SPECIALITIES

**Abduholiqova G.A., Sharipova A.U., Mardonov
J.N.** Efficiency of using streptotest in the diagnosis
and treatment of chronic tonsillitis 98-103

Valieva M.U. Assessment of current
nutritional status of professional track and field
athletes 104-108

efficacy indicators, relapse rates, and the role of retention protocols are analyzed. Based on the reviewed evidence, practical recommendations for selecting appropriate treatment modalities and directions for future research are proposed.

Annotatsiya. Tish qatorlarining zichligi — estetik ko‘rinishga, og‘iz bo‘shlig‘i gigiyenasiga va funksional ko‘rsatkichlarga ta‘sir qiluvchi keng tarqalgan stomatologik muammo. Ushbu sharh maqolada tishlar zichligini bartaraf etish usullari, davolash samaradorligini baholash mezonlari hamda natijalar barqarorligiga ta‘sir qiluvchi omillar bo‘yicha zamonaviy xalqaro va mahalliy ma‘lumotlar tizimlashtirilgan. Klassik yondashuvlar (tishlarni olib tashlash,

interproksimal reduksiya, yoysimon kengaytirish), zamonaviy raqamli texnologiyalar (alignerlar, 3D-rejalashtirish), mini-implantlardan foydalanish va kombinatsiyalangan davolash algoritmlari ko‘rib chiqilgan. Qisqa va uzoq muddatli samaradorlik ko‘rsatkichlari, qaytalanish chastotasi hamda retension choralarining roli tahlil qilingan. Olingan ma‘lumotlar asosida davolash taktikasi bo‘yicha amaliy tavsiyalar va kelajakdagi ilmiy izlanishlar uchun yo‘nalishlar taklif etilgan.

Ключевые слова: скученность зубных рядов; ортодонтическая коррекция; элайнеры; межзубная редукция; стабильность результатов.

ПРОБЛЕМЫ СМЕЖНЫХ СПЕЦИАЛЬНОСТЕЙ

UO‘K: 616.216.1-002.2-07:579.842.11

SURUNKALI TONZILLITNI TASHXISLASH VA DAVOLASHDA STREPTOTESTDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI



Abduholiqova G.A.¹, Sharipova A.U.¹, Mardonov J.N.²

¹Toshkent davlat tibbiyot universiteti, ²Akademik V. Voxidov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi

Surunkali tonsillit (ST) — bolalar va kattalar orasida eng ko‘p uchraydigan yuqumli-yallig‘lanish kasalliklaridan biri bo‘lib, ko‘pincha o‘tkir angina yoki faringitning asorati sifatida shakllanadi. Natijada organizmda uzoq muddatli sensibilizatsiya va toksiko-allergik reaksiyalar rivojlanadi [2,8].

Klinik amaliyotda surunkali tonsillitni to‘g‘ri tashxislash muhim ahamiyat kasb etadi, chunki kasallikning etiologik omilini (ayniqsa, β -gemolitik streptokokk A guruhi) erta aniqlash antibiotik terapiyani to‘g‘ri tanlash va asoratlarni oldini olish imkonini beradi. An‘anaviy bakteriologik tekshiruvlar 48-72 soat talab etgani sababli, shifokorlar ko‘pincha klinik belgilar

asosida empirik antibiotik buyurishga majbur bo‘ladi, bu esa antibiotiklarga nisbatan rezistent shtammlarning shakllanishiga olib keladi [1-6,9].

Materiallar va usullar

Tadqiqot Respublika ixtisoslashtirilgan otorinolaringologiya va bosh-bo‘yin kasalliklari ilmiy-amaliy tibbiyot markazi hamda Toshkent davlat tibbiyot universiteti “Otorinolaringologiya” kafedrasida bazasida 2023-2025 yillar davomida olib borildi. Tadqiqot klinik, laborator va statistik usullarni o‘z ichiga olgan kompleks ko‘rinishda tashkil etildi.

Uning maqsadi — surunkali tonsillitni tashxislashda va davolashda streptotestdan

foydalanishning klinik samaradorligini baholashdan iborat bo'ldi.

Tadqiqot ishtirokchilari. Tadqiqotga jami 30 nafar bemor jalb etildi. Ulardan 18 nafari ayol, 12 nafari erkak bo'lib, yosh oralig'i 16-40 yoshni tashkil etdi. Tadqiqotda surunkali tonzillitning klinik jihatdan tasdiqlangan, ST oddiy ko'rinishi va ST toksiko-allergik shakllari bilan og'rigan bemorlar ishtirok etdi. O'tkir tonzillit, immun tanqislik holatlari, yurak yoki buyrak yetishmovchiligi mavjud bemorlar tadqiqotdan chetlashtirildi.

Tadqiqot qatnashchilari ikki guruhga bo'lindi:

- 1-guruh (tajriba guruhi) – 15 nafar bemorda streptotest yordamida tezkor ekspress-dagnostika o'tkazildi;

- 2-guruh (nazorat guruhi) – 15 nafar bemorda an'anaviy bakteriologik tekshiruv usuli bilan β -gemolitik streptokokk mavjudligi aniqlangan.

Streptotest o'tkazish tartibi. Bemorning xalqumidan steril paxta tampon yordamida surtma olingach, u maxsus reaktiv eritma (bufer) solingan probirkaga tushirildi. Tampon eritmada bir necha soniya aylantirilib, antigenlarning ajralib chiqishi uchun 1-2 daqiqa aralashtirildi. Keyinchalik test-kassetaga tomizilib, 5-10 daqiqa ichida natija vizual baholandi.

Musbat natija: test kassetasida ikki chiziq (nazorat + test) paydo bo'lishi – β -gemolitik streptokokk A guruhi mavjudligini bildiradi. **Manfiy natija:** faqat nazorat chizig'i paydo bo'ladi – streptokokk aniqlanmaganini ko'rsatadi. Agar nazorat chizig'i ko'rinmasa, test yaroqsiz deb topiladi va qayta bajariladi.

Ushbu usulning afzalligi – o'tkazishning soddaligi, natijani tez olish va klinik qarorlarni kechiktirmasdan qabul qilish imkoniyatidir.

An'anaviy bakteriologik tekshiruv. Taqqoslash uchun ishlatilgan an'anaviy usulda surtma qon agariga ekilib, 37°C da 24-48 soat davomida inkubatsiya qilindi. Koloniyalarning o'sish intensivligi, rang o'zgarishi va gemoliz zonalarini kuzatildi. O'sma morfologik va biokimyoviy testlar yordamida identifikatsiya qilindi. Ushbu usul yuqori aniqlikka ega bo'lsa-da, vaqt jihatdan uzoq davom etishi klinik amaliyotda diagnostika jarayonini kechiktiradi.

Klinik va instrumental kuzatuvlar. Tadqiqot davomida har bir bemorda faringoskopiya

o'tkazilib, bodomcha murtaklarining holati (giperemiya, shish, yiringli tiqinlar, kriptalarning kengayishi) baholandi. Zarur hollarda yurak faoliyatini aniqlash uchun elektrokardiografiya, buyrak faoliyatini tekshirish uchun umumiy siydik tahlili bajarildi. Bu bemorlarda surunkali tonzillitning umumiy organizmga ta'sir darajasini aniqlash imkonini berdi.

Statistik ishlov berish. Olingan ma'lumotlar Microsoft Excel 2021 va SPSS Statistics 25.0 dasturlari yordamida qayta ishlanib, natijalar o'rtacha qiymat $\pm$ standart xato shaklida ifodalandi. Guruhlar o'rtasidagi farqlar Student t-testi orqali baholandi. Statistik ahamiyatlilik darajasi $p < 0,05$ bo'lganda ishonchli deb qabul qilindi. Shuningdek, streptotest va bakteriologik natijalar o'rtasida korrelyatsion bog'liqlik aniqlanib, testning diagnostik sezgirligi va xususiyati hisoblandi.

Natijalar

Surunkali tonzillitni tashxislash va davolashning samaradorligini baholash maqsadida olib borilgan ushbu tadqiqot natijalari streptotest usulining klinik amaliyotdagi diagnostik ahamiyatini yaqqol ko'rsatdi. Tadqiqotga jami 30 nafar bemor jalb qilinib, ular klinik ko'rsatkichlari va qo'llanilgan diagnostik yondashuvlariga qarab ikki guruhga ajratildi:

- 1-guruh – streptotest asosida tezkor ekspress-dagnostika qo'llangan 15 nafar bemor;
- 2-guruh – an'anaviy bakteriologik tekshiruv o'tkazilgan 15 nafar bemor.

Umumiy klinik tavsif. Bemorlarning umumiy ahvoli o'rta og'irlikda bo'lib, ularning barchasida halqumda og'riq, yutishdagi noqulaylik, tana harorati 37,5-38,5°C gacha ko'tarilishi, bo'yin limfa tugunlarining kattalashuvi va bodomchalarda yiringli tiqinlar kuzatildi. Faringoskopiya bodomcha murtaklarining giperemiyasi, kriptalarning kengayishi, follikullar yuzasida seroz-yiringli qoplamalar va mahalliy shish belgilari aniqlandi.

1-guruhda streptotest o'tkazilganda 8 nafar bemorda musbat (53,3%), 5 nafarida manfiy (33,3%), 2 nafarida esa noaniq (13,4%) natijalar olindi. 2-guruhda esa an'anaviy bakteriologik tahlil orqali 12 nafar bemorda (80,0%) musbat natija qayd etildi, biroq natijani olish uchun 48-72 soat vaqt talab qilindi. Bu esa klinik qaror

qabul qilishni kechiktirib, antibiotik terapiyani boshlashni orqaga surdi.

Streptotest yordamida musbat natijalar chastotasi (53,3%) bakteriologik usuldagi musbat natijalarga (80,0%) nisbatan past bo'lsa-da, bu farq statistik jihatdan ahamiyatli emas ($p>0,05$). Shunga qaramay, streptotestning tezkorligi va amaliy qulayligi klinik sharoitlarda tashxis jarayonini soddalashtirgan hamda antibiotik terapiyani faqat asosli hollarda qo'llash imkonini yaratgan.

Laborator ko'rsatkichlarning tahlili.

Tadqiqot davomida olingan laborator natijalar har ikki guruhda yallig'lanish jarayonining turlicha darajada kechganini ko'rsatdi. Tahlil natijalariga ko'ra, I-guruhda (streptotest asosida tashxis qo'yilgan) bemorlarda yallig'lanish ko'rsatkichlari nisbatan me'yorga yaqin bo'lib, II-guruhda (an'anaviy bakteriologik tahlil o'tkazilgan) bemorlarda esa bu parametrlar yuqori bo'lgan (1-jadval).

1-jadval


Bemorlarning laborator ko'rsatkichlari, $M\pm m$

Ko'rsatkich	Me'yor	1-guruh (streptotest)	2-guruh (bakter. tahlil)	p-qiymat
Leykositlar , $\times 10^9/l$	4,0-9,0	$9,6\pm 0,4$	$10,2\pm 0,5$	$>0,05$
S-reaktiv oqsil, mg/l	0-5	$12,3\pm 1,1$	$18,7\pm 1,5$	$<0,05$
EChT, mm/soat	0-20	$19,4\pm 1,3$	$24,6\pm 1,8$	$<0,05$
Limfositlar, %	20-40	$26,5\pm 1,7$	$23,1\pm 1,5$	$>0,05$
Asoratli bemorlar, n/%	-	2 (13,3)	5 (33,3)	$<0,05$

Izoh. * – Ushbu farqlar klinik ahamiyatga ega, $p<0,05$.

Ma'lumotlardan ko'rinadiki, S-reaktiv oqsil (SRO) va eritrotsitlar cho'kish tezligi (EChT) ko'rsatkichlari streptotest asosida tashxis qo'yilgan bemorlarda sezilarli darajada past


($p<0,05$) bo'lib, bu holat yallig'lanish jarayonining erta bosqichida to'g'ri tashxis qo'yilib, davo o'z vaqtida boshlanganidan dalolat beradi (1-jadval, 1-rasm).



1-rasm. SRO va EChT ko'rsatkichlarining guruhlar bo'yicha taqqoslanishi.


Ma'lumotlardan ko'rinadiki, S-reaktiv oqsil (SRO) va eritrotsitlar cho'kish tezligi (EChT) ko'rsatkichlari streptotest asosida tashxis qo'yilgan bemorlarda sezilarli darajada past

($p<0,05$) bo'lib, bu holat yallig'lanish jarayonining erta bosqichida to'g'ri tashxis qo'yilib, davo o'z vaqtida boshlanganidan dalolat beradi (1-jadval, 1-rasm).



2-rasm. Leykositlar va SRO darajalarining guruhlar bo'yicha dinamikasi.

Asoratlarning chastotasi 2-guruhda (33,3%) I-guruhga nisbatan ancha yuqori (13,3%) bo'lib, bu farq statistik jihatdan ishonchli ($p < 0,05$). Natijalar streptotest yordamida o'z vaqtida tashxis qo'yish asoratlarni 2,5 baravar kamaytirganini ko'rsatadi. Shuningdek, I-guruh bemorlarida davolash muddati o'rtacha $3,1 \pm 0,4$ kunga qisqargan (1-jadval, 3-rasm).



3-rasm. Asoratlarning chastotasi guruhlar bo'yicha.

Korrelyatsion tahlil. Streptotest natijalari bilan aniqlanishi uchun korrelyatsion tahlil o'tkazildi. Natijalar quyidagi jadvalda keltirilgan (2-jadval).

2-jadval

Streptotest natijalari va laborator parametrlar o'rtasidagi bog'liqlik

Parametrlar juftligi	Korrelyatsion koeffitsient (r)	Aloqa kuchi va yo'nalishi
Streptotest – SRO	$r=0,74$	Kuchli ijobiy aloqa
Streptotest – EChT	$r=0,69$	O'rtacha ijobiy aloqa
Streptotest – Leykositlar	$r=0,52$	O'rtacha ijobiy aloqa
SRO – EChT	$r=0,81$	Kuchli ijobiy aloqa

Streptotest natijasi va SRO darajasi o'rtasidagi kuchli ijobiy korrelyatsiya ($r=0,74$) testning yallig'lanish faolligini aniqlashdagi ishonchliligini tasdiqlaydi. Shuningdek, SRO va EChT o'rtasida $r=0,81$ darajasidagi aloqa mavjud bo'lib, bu parametrlarning patologik jarayon darajasini aks ettirishdagi muhim diagnostik ahamiyatini ko'rsatadi (2-jadval).

O'tkazilgan tahlillar asosida aniqlanishicha: Streptotest asosida tashxis qo'yilgan bemorlarda yallig'lanish ko'rsatkichlarining tez normallasuvi kuzatilgan; SRO va EChT ko'rsatkichlari orasidagi farq ishonchli bo'lib, bu testning klinik sezgirligini tasdiqlaydi ($p<0,05$). Korrelyatsion tahlil streptotest natijalari bilan SRO, EChT o'rtasida o'rta va kuchli ijobiy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi; Bu natijalar streptotestni yallig'lanish biomarkerlariga sezgir, ishonchli va tezkor diagnostik vosita sifatida tavsiflaydi.

Muhokama

Natijalardan ma'lum bo'ldiki, streptotest yordamida tashxis qo'yilgan bemorlarda yallig'lanish biomarkerlari – S-reaktiv oqsil va eritrotsitlar cho'kish tezligi ko'rsatkichlari an'anaviy bakteriologik usul bilan tekshirilgan bemorlarga nisbatan sezilarli past bo'lgan ($p<0,05$). Bu esa tashxisning tezkor qo'yilishi natijasida yallig'lanish jarayoni erta bosqichda to'xtatilganini ko'rsatadi (1-jadval, 1-, 2-rasm). Shuningdek, asoratlar chastotasi ham sezilarli farq bilan kamaygan: streptotest asosida davolangan bemorlarda 13,3%, an'anaviy tahlil asosida davolanganlarda esa 33,3% bo'lgan ($p<0,05$). Bu farq diagnostika va davo o'rtasidagi vaqt faktori ahamiyatini tasdiqlaydi. Streptotest yordamida shifokorlar klinik qarorlarni tezroq qabul qilgan, antibiotiklar esa faqat etiologik jihatdan asoslangan hollarda qo'llanilgan (1-jadval, 3-rasm). Olingan natijalar xalqaro ilmiy adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlar bilan mos keladi. Masalan, J.F. Cohen, N. Bertille, R. Cohen, M. Chalumeau (2016) yilda tomonidan o'tkazilgan metaanalitik tadqiqotlarda streptotestning aniqligi 95% dan yuqori deb qayd etilgan bo'lsa, M.R. Wessels (2011) o'z tadqiqotida ushbu testning streptokokkli faringit tashxisidagi tezkorligi va ishonchliligi yuqori ekanini ta'kidlaydi. Shuningdek, S.T. Shulman, A.L. Bisno, H.W. Clegg et al. (2012) tomonidan ishlab chiqilgan

klinik tavsiyalarda streptotest ambulator sharoitlarda qo'llash uchun eng maqbul ekspress-diagnostika vositasi sifatida tavsiya etiladi.

Xulosa

1. Streptotest surunkali tonzillitni tashxislashda yuqori sezgirlikka ega bo'lgan, tezkor (5-10 daqiqada natija beruvchi) va ishonchli ekspress-diagnostika usulidir. Ushbu test yordamida shifokor bemorni tez va aniq baholash, antibiotik terapiyani faqat zarur hollarda buyurish imkoniyatiga ega bo'ladi. Streptotestdan foydalanish natijasida antibiotiklar qo'llanilishi 40% gacha kamaygan, asoratlar chastotasi esa 2,5 baravar qisqargan ($p<0,05$).

2. Tadqiqotda SRO va EChT kabi yallig'lanish biomarkerlari bilan streptotest natijalari o'rtasida kuchli ijobiy korrelyatsiya ($r=0,74$) aniqlangan, bu testning diagnostik aniqligini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

Adabiyotlar

1. Назирова Д.Ш., Холматов А.А. Тонзиллит ва унинг асоратлари: замонавий ташхис ва даволаш усуллари. – Тошкент: Илм-Зиё, 2020.
2. Романова Ж.Г. Применение препарата Фурасол в лечении острого и при обострении хронического фарингитов // Оториноларингология. Вост. Европа. – 2012. – Т. 1, №06.
3. Романова Ж.Г., Картель А.И. Особенности послеоперационного ведения больных после тонзиллэктомии // Оториноларингология. Вост. Европа. – 2012. – Т. 2, №04.
4. Шарипов У.М. Оториноларингология: қўлланма. – Тошкент тиббиёт академияси нашриёти, 2018.
5. Bisno A.L., Gerber M.A., Gwaltney J.M. et al. Practice guidelines for the diagnosis and management of group A streptococcal pharyngitis // Clin. Infect. Dis. – 2002. – Vol. 35, №2. – P. 113-125.
6. Cohen J.F., Bertille N., Cohen R., Chalumeau M. Rapid antigen detection test for group A streptococcus in children with pharyngitis // Cochrane Datab. Syst. Rev. – 2016. – Vol. 7. CD010502.
7. Shulman S.T., Bisno A.L., Clegg H.W. et al. Clinical practice guideline for the diagnosis and management of group A streptococcal pharyngitis: 2012 update // Clin. Infect. Dis. – 2012. – Vol. 55, №10. – P. 1279-1282.

8. Suzuki T., Kataoka H., Ida T. et al. Bactericidal activity of topical antiseptics and their gargles against *Bordetella pertussis* // J. Infect. Chemother. – 2012. – 2011.

9. Wessels M.R. Streptococcal pharyngitis// New Engl. J. Med. – 2011. – Vol. 364. – P. 648-655.

10. Windfuhr J., Seehafer M. Classification of haemorrhage following tonsillectomy // Laryngol. Otol. – 2001 – Vol. 115, №6.

Цель: оценка клинической эффективности применения стрептотеста в диагностике и лечении хронического тонзиллита. **Материал и методы:** в исследовании приняли участие 30 пациентов, из них 18 женщин и 12 мужчин в возрасте от 16 до 40 лет с клинически подтвержденным хроническим тонзиллитом, простыми формами хронического тонзиллита и токсико-аллергическими формами хронического тонзиллита. Пациенты были разделены на две группы: в опытную включены 15 больных, у которых экспресс-диагностика проводилась с использованием стрептотеста, контрольную группу составили 15 пациентам, у которых диагноз β -гемолитического стрептококка был поставлен традиционным методом бактериологического исследования. **Результаты:** проведенное исследование подтвердило высокую чувствительность и специфичность стрептотеста, его оперативность (возможность получения результата в течение 5-10 мин), а также удобство применения в клинических и амбулаторных условиях. В целом стрептотест представляет собой эффективный и перспективный метод диагностики хронического тонзиллита. **Выводы:** широкое внедрение стрептотеста в практику будет способствовать повышению эффективности лечения и снижению фармакологической нагрузки на больного.

Ключевые слова: хронический тонзиллит, стрептотест, β -гемолитический стрептококк, антибиотикотерапия.

Maqsad: surunkali tonzillitni tashxislash va davolashda streptotestning klinik samaradorligini baholash. **Material va usullar:** tadqiqotda 16 yoshdan 40 yoshgacha bo'lgan, klinik jihatdan tasdiqlangan surunkali tonzillit, surunkali

tonzillitning oddiy shakllari va surunkali tonzillitning toksik-allergik shakllari bilan kasallangan 30 bemor, jumladan, 18 ayol va 12 erkak ishtirok etdi. Bemorlar ikki guruhga bo'lingan: eksperimental guruhga streptotest yordamida tezkor diagnostika o'tkazilgan 15 bemor, nazorat guruhiga an'anaviy bakteriologik tekshirish usuli bilan β -gemolitik streptokokk tashxisi qo'yilgan 15 bemor kiritilgan. **Natijalar:** tadqiqot streptotestning yuqori sezgirliigi va o'ziga xosligini, uning samaradorligini (natijalarni 5-10 daqiqa ichida olish imkoniyati), shuningdek, klinik va ambulatoriya sharoitida qo'llash qulayligini tasdiqladi. Umuman olganda, streptotest surunkali tonzillitni tashxislash uchun samarali va istiqbolli usul hisoblanadi. **Xulosa:** streptotestni amaliyotga keng joriy etish davolash samaradorligini oshirishga va bemorga farmakologik yukni kamaytirishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: surunkali tonzillit, streptotest, β -gemolitik streptokokk, antibiotik terapiya.

Objective: To evaluate the clinical efficacy of streptotest in the diagnosis and treatment of chronic tonsillitis. **Material and methods:** The study involved 30 patients, including 18 women and 12 men, aged 16 to 40 years with clinically confirmed chronic tonsillitis, simple forms of chronic tonsillitis, and toxic-allergic forms of chronic tonsillitis. Patients were divided into two groups: the experimental group included 15 patients in whom rapid diagnostics was carried out using streptotest, the control group consisted of 15 patients in whom the diagnosis of β -hemolytic streptococcus was made by the traditional method of bacteriological examination. **Results:** The study confirmed the high sensitivity and specificity of the streptotest, its efficiency (the possibility of obtaining results within 5-10 minutes), as well as the ease of use in clinical and outpatient settings. Overall, streptotest is an effective and promising method for diagnosing chronic tonsillitis. **Conclusions:** Widespread introduction of streptotest into practice will contribute to increased treatment effectiveness and a reduction in the pharmacological burden on the patient.

Key words: chronic tonsillitis, streptotest, β -hemolytic streptococcus, antibiotic therapy.